
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

NAVOIYSHUNOSLIK
(Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni misolida)

O‘quv qo‘llanma

*Ta’lim yo‘nalishi: 60230100 – Filologiya va tillarni
o‘qitish (o‘zbek tili)*

“Anorbooks”
Toshkent – 2023

UO‘K 821.512.133.09-1

KBK 83.3(50‘)

I 81

Ismoilov, Ilyos.

Navoiyshunoslik (Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni misolida) [Matn] / – Toshkent: Anorbooks, 2023. – 296 b.

Mazkur “Navoiyshunoslik” (Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni misolida) o‘quv qo‘llanmasi amaldagi o‘quv reja va shu reja asosidagi o‘quv dasturiga muvofiq yaratilgan. Unda “Navoiyshunoslik” fani doirasida o‘rganish ko‘zda tutilgan mavzular; xususan, Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni va unga oid masalalar batafsil yoritilgan. O‘zbek navoiyshunosligi erishgan eng so‘nggi ilmiy yutuqlardan samarali foydalanilgan.

O‘quv qo‘llanma 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan. Shuningdek, undan 60111400 – O‘zbek tili va adabiyoti, 5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti (kechki) ta‘lim yo‘nalishi talabalarini o‘qitishda ham foydalanish mumkin.

Mas‘ul muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov,
filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Boqijon To‘xliyev,
filologiya fanlari doktori, professor
Karomat Mullaxo‘jayeva,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-iyuldagi 314-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9943-8790-0-3

© Ilyos Ismoilov, 2023

© “Anorbooks”, 2023

MUNDARIJA

Kirish.....	5
1. “Saddi Iskandariy” dostonining yaratilish tarixi.....	8
2. Doston kompozitsiyasi.....	34
3. Doston debochasi.....	54
4. “Saddi Iskandariy” dostonining asosiy qismi tahlili.....	89
4.1. Dostonning prolog bobi.....	89
4.2. Himmat – oriflik shijoati.....	95
4.3. Adolat – hayot bulogʻi.....	119
4.4. Muxolifat mazammatida.....	129
4.5. Har bir ishning yaxshisi – oʻrtachasi.....	137
4.6. Qish taʼrifida.....	145
4.7. Kishi oʻzluki mulkidin qilsa sayr.....	151
4.8. Umr gʻanimat turur.....	159
4.9. Muruvvat – tariqi rayosatdurur.....	167
4.10. Rosti rasti (toʻgʻri boʻlsang, qutulasan).....	175
4.11. Sahovat – berish emas, olishdir.....	183
4.12. Ilohiy fayz tajalliy etgan fasl.....	189
4.13. Basirat koʻzini mohiyatni anglash surmasi yoritganlar..	195
4.14. Hajr – yorga eltuvchi yoʻl.....	203
4.15. Musofir boʻl, ammo vatan ichra boʻl.....	211
4.16. Suqrot – yana komil inson timsoli.....	219
4.17. Jahon nedurur – bir ulugʻroq kesak.....	224
4.18. Valoyatdin ilgida quvvat dogʻi.....	234
5. “Saddi Iskandariy” dostonining xotimasi.....	242
Foydalanilgan adabiyotlar.....	252
Ilovalar.....	272

1-MAVZU. “SADDI ISKANDARIY” DOSTONINING YARATILISH TARIXI

Reja:

1. Iskandar mavzusi va xamsanavislik an'anasi.
2. “Saddi Iskandariy” dostonining yozilish jarayoni.
3. Alisher Navoiyning dostonidan ko'zlagan ijodiy niyatlari.

Tayanch tushunchalar: *an'ana va originallik, asar tarixi, xamsanavislik, Iskandar, Iskandar mavzusi, Alisher Navoiy, Saddi Iskandariy, ijodiy niyat.*

1. Iskandar qissasining G'arbdan Sharqqa transformatsiyasi va retsepsiyasida Aleksandr haqidagi asl tarix emas, aksincha, qayta ishlangan va muayyan mafkuralar ta'siriga uchragan manbalar muhim o'rin tutgan. Bunday manbalarining boshida Psevdo-Kallisfen an'anasi, ayniqsa, uning suryoniy versiyasi, Aleksandr haqidagi ikki xristian afsonasi, shuningdek, Talmud afsonalari turadi. Aksar sharq tarixchilari, mufassirlari mazkur manbalarga tayangani bois asl haqiqatga muvofiq bo'lmagan qarashlarni bayon qilishdi, natijada Iskandar shaxsi va o'tmishi to'g'risida noto'g'ri tasavvurlar shakllandi.

Qur'on nozil bo'lgach Zulqarnayn qissasini bu siraga qo'shib, uydirmalarga to'la qissani yanada chigal holga keltirishdi, xullas, sharq manbalarida ko'proq Iskandar haqidagi soxta qissa-yu rivoyatlar keng yoyildi. Bu bilan parallel ravishda sharqlik mualliflar tomonidan qissani qayta ishlash

va unga yangi sharqona qismlarni kiritib borish – mahalliy-lashtirish jarayoni ham davom etgan. A.N.Veselovskiy bu hodisaning qonuniyligini shunday qayd etadi: “Turli xalqlar o‘rtasidagi miflar, ertaklar, epik sujetlarning o‘xshashligini tushuntirar ekan tadqiqotchilar, odatda, ikkita qarama-qarshi yo‘nalishga ajraladilar: o‘xshashlik yo o‘xshash afsonalar tayangan deb taxmin qilinuvchi umumiy asoslar bilan yoki ulardan biri mazmunini boshqasidan olgan degan gipoteza bilan izohlanadi. Aslida, bu nazariyalarning hech biri alohida qo‘llanmaydi va ularni faqat birgalikda tasavvur qilish mumkin, chunki o‘zlashtirish idrok etuvchida bo‘sh joyni emas, balki qarshi ro‘para keluvchi oqimlarni, fikrlashning o‘xshash yo‘nalishini, fantaziyaning o‘xshash obrazlarini nazarda tutadi”¹. Mufassir-u muarrixlar xulosasiga tayangan sharqlik adiblar ham, tabiiyki, mazkur jabhada ularga ergashdi. Obyektiv haqiqat shuki, Iskandar masalasida sharq adabiyoti tayangan manbalar uydirma va yolg‘onlar bilan to‘la, ularda haqiqatning izlari kam. Manbalarga xos bu yetakchi xususiyatlar adabiyotga ham ko‘chib o‘tib, Iskandar obrazi va qissasining asosiy adabiy talqinlarini belgilab bergan.

Sharq adabiyoti, xususan, epik she‘riyatida Iskandar mavzusining rivoji va unga xos yetakchi tendensiyalar, asosan, xamsanavislik an‘anasi doirasida yaratilgan iskandar-nomalarda namoyon bo‘ladi. Ayni paytda xamsanavislikda Iskandar haqida asar yozish an‘anasinning shakllanishiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatgan adabiy manbalar borligini ta‘kidlash kerak. Xususan, sharq adabiyotida Iskandar mavzusida birinchilardan bo‘lib maxsus doston yozgan ijodkor Abulqosim Firdavsiy (934–1030)dir. Firdavsiyning “Iskandar pod-

¹ Веселовский А.Н. Разыскания в области духовного стиха. IX–XVII вв. Вып. 5. – Санкт-Петербург: Типография императорской АН, 1889. – С. 115.

shohligi” dostoni an’ana tarixida ikki jihatdan muhim ahamiyat kasb etgan: 1. Iskandar qissasining sharq tarixnavisligida ommalashgan klassik namunasi Sharq adabiyotiga transformatsiyasida muhim bo‘g‘in vazifasini bajardi va Iskandar haqida sharqda mashhur asosiy sujet liniyalarini olib kirdi. 2. Xamsanavislik an’anasi doirasida yaratilgan iskandarnomalarga adabiy manba vazifasini bajardi, ularga xos yetakchi tendensiyalar shakllanishiga zamin yaratdi va original talqinlar yuzaga kelishiga ta’sir ko‘rsatdi. Shu bois bu asar Iskandar qissasining xamsanavislik an’anasida paydo bo‘lishi, xususan, Nizomiy Ganjaviy “Iskandarnoma”sini tushinishda muhim o‘rin tutadi.

Nizomiy (1141 – 1209) “Iskandarnoma”ni¹ XIII asr boshlarida yaratgan bo‘lib, asar “Sharafnoma” va “Iqbolnoma” deb ataluvchi ikki qismdan tashkil topgan, umumiy hajmi o‘n ming baytdan ortiqroq². Nizomiy keksayib, xilvatninishin bo‘lgan kezlarda shohlar vasfida bir asar yaratishga qaror qilgan³. Nima uchun Iskandar mavzusini tanlagani haqida esa shunday yozadi:

*Nihodam zi har sheva hangomae,
Magar dar suxan nav kunam nomae.
Dar on hayratobodi beyovaron
Zadam qur’a bar nomi nomovaron.
Haroina, k-az xotirash toftam,
Xayoli Sikandar dar o‘yoftam⁴.*

Xizr doston qanday yozilishi kerakligi haqida unga ta’lim berib, eng ishonchli so‘zlarni yozish, aytilganlarni takrorla-

¹ Ganjavay N. Xamsa: Iskandarnoma. – Душанбе: Адиб, 2012. – С. 457.

² O.Abdullayevning qayd etishicha, Nizomiy “Iskandarnoma”si 10 471 baytdan iborat. Bu haqda qarag: Abdullaev O. Amir Xusrav Dехлавй ва Amir Алишер Навоий (анъана, янгилік ва махорат масалалари): Филол. фан. номз. ...дисс. – Хучанд, 2011. – С. 90.

³ Ganjavay, – С. 27.

⁴ Ganjavay, – С. 29.

Savol va topshiriqlar

1. Alisher Navoiyning shahzoda Muzaffar Husayanga aytgan nasihatlari, donishmandlar tilidan keltirilgan o‘g‘itlari qanday mazmunga ega?

2. Alisher Navoiyning o‘z ukasi Darveshaliga nasihatlaridagi muhim jihatlarni aniqlang.

3. Navoiy tasvirlagan g‘aybiy lavha real voqelikmi yoki faxriya mazmunidagi adabiy usul?

4. “Saddi Iskandariy” dostonining Navoiy “Xamsa”sidagi o‘rni borasida fikr yuriting.

Adabiyotlar

1. Эшонбобоев А. “Садди Искандарий”нинг бадиий хусусиятларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 2018. – №1. – Б. 67 – 70.

2. Исмоилов И. Алишер Навоийнинг “Садди Искандарий” достони генезиси ва поэтикаси. Филол. фан. д-ри. дис. – Тошкент: 2022. – Б. 247 – 251.

3. Ismoilov I. Navoiy ijodida Iskandar obrazi talqinlari (monografiya). – Toshkent: BAYOZ, 2020.

4. Исҳоқов Ё. Нақшбандия таълимоти ва ўзбек адабиёти. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002. – Б. 51 – 54.

5. Валихўжаев Б. “Хамса” такмили // Алишер Навоий “Хамса”си (тадқиқотлар). – Тошкент: Фан, 1986. – Б. 81–101.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Manbalar

1. Mahalliy nashrlar

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимида киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ / Ш.М. Мирзиёев. – Тошкент: “Ўзбекистан” НМИУ, 2016. – 56 б.

2. Мирзиёев Ш.М. “Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини ҳалқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари” мавзуидаги ҳалқаро конференция иштирокчиларига йўллаган табриги // Халқ сўзи, 2018 йил, 8 август.

3. Алишер Навоийнинг “Садди Искандарий” достони конкорданси / Тузувчилар: А.Қуронбеков ва бошқалар. – Тошкент: 2016. – 832 б.

4. Алишер Навоий: қомусий луғат. Икки жилдлик / Масъул муҳаррир: Ш.Сирожиддинов. I ж. – Тошкент: Sharq, 2016. – 536 б.

5. Алишер Навоий: қомусий луғат. Икки жилдлик / Масъул муҳаррир: Ш.Сирожиддинов. II ж. – Тошкент: Sharq, 2016. – 480 б.

6. Ат-Термизий Абу Ийсо Муҳаммад. Шамоили Муҳаммадийя. – Тошкент: Sharq, 2015. – 320 б.

7. Беруний Абу Райҳон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Асарлар. Беш томлик. Т.1. – Тошкент: Фан, 1968. – 488 б.

Ilmiy-uslubiy nashr

Ilyos Ismoilov
Navoiyshunoslik

O'quv qo'llanma

Muharrir:

Fayzulla Iskandarov

Musahhih:

Mohlaroy G'ofurjonova

Sahifalovchi:

Hasan O'ktam o'g'li

Tasdiqnoma raqami № 5566

Bosishga 2023-yil 4-sentyabrda ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$. "Times New Roman" garniturası.

Ofset bosma usulida bosildi.

18.5 bosma taboq. Adadi 500 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

"Anorbooks" nashriyotida tayyorlandi va chop etildi.

Toshkent shahri, Olmazor tumani,

Qiziltut ko'chasi, 7-uy.

(+99899) 335-66-00